



THE TACTICAL METHOD OF ENCIRCLEMENT IN THE MILITARY OPERATIONS OF ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Artikbayev Dilshod Tashpulatovich¹

Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

KEYWORDS

Tulgama, Amir Temur, tactical, strategic, Cunbul, Babur, Babur name, Shaybani khan, dashti-kipchak troops, oblique blow

ABSTRACT

This article describes a tactical way “Tulgama” developed by armed Babur.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10138438**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Lieutenant colonel (ret.), Associated professor of the Department of Combat Support, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, Uzbekistan

ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY HARAKATLARIDA QURSHAB OLISH TAKTIK USILINI QO‘LLANISHI

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

To‘lg‘ama, Amir Temur,
taktika, strategiya, Qunbul,
Bobur, Boburnoma,
Shayboniyxon, dashti-
qipchoq qo‘shini, qiya zarba

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada Bobur qo‘shinlarida rivojlangan qurshab olish taktik usul - “To‘lg‘ama” usuli yoritilgan.

Jang davomida, qo‘shinlarning dushmandan ustun kelish, kuch va vositalarning zaruriy turkumini yaratish, yanada samarali talafot yetkazish maqsadida zarbalar va o‘t ochish amallarini bir joydan boshqa joyga uyushqoqlik bilan ko‘chirish yoki qayta taqsimlash – manyovr qilish deyiladi. Manyovrning turlari, otatda: o‘rab olish, aylanib o‘tish, chekinish hamda zarbalar va o‘t ochish amallari bilan o‘tkaziladigan manyovr harakatlar hisoblanadi.

Dushman qo‘shinlarining asosiy kuchlarini aylanib o‘tish usulining asoschisi Yevropa harbiy nazariyotchilari Klauzevis va Delbryuklarni fikriga ko‘ra prus qiroli Fridrix II (1712-1786) hisoblanib, u tomonidan o‘tkazilgan “Qiya zarba” - manyovrli jangning etaloni – deb, hisoblanib kelinmoqda. Lekin, bu taktik usulni, ya’ni dushmanning asosiy kuchlarini aylanib o‘tish va qurshab olish usulini Fridrix II dan bir necha yuz yil ilgari Osiyoda Turkiy davlatlarning qo‘shinlari jangda g‘alabani ta’minlaydigan asosiy taktik usul sifatida muvaffaqiyatli qo‘llab kelishgan. Bu usul bizga “To‘lg‘ama” taktik usuli nomi bilan ma’lum [1].

“To‘lg‘ama” taktik usuli nima? Bu taktik usulning mohiyatini tushunish uchun bizgacha yetib kelgan juda muhim manba - Zahiriddin Muhammad Boburning avtobiografiyasi: “Boburnoma” ga e’tiborimizni qaratishimiz darkor. 1501 yili Zarafshon daryosi sohilidagi Saripul qishlog‘i yaqinida Zahiriddin Muhammad Bobur va Shayboniyxon o‘rtasida bo‘lgan jang to‘g‘risida Bobur quyidagilarni yozadi (1-rasm) [2]: “G‘animning burong‘ori juvong‘orimizni bosib orqag‘a evruldi, irovul ham o‘ng qo‘l sari qolib, olimiz yalang bo‘ldi. Keyindin va ilg‘aridin g‘anim kishisi zo‘rlab o‘q qo‘ya kirishti....

Olimizdag‘ilarni necha navbat zo‘rlab kelganda urub yondurduk. Ilgarimiz ham zo‘rladi, keyin evrulgan kishi ham kelib bizni tug‘qa o‘q qo‘ya kirishtilar. Ilgaridin, keyindin zo‘rladilar. Bizning elni tebrattilar.


O‘zbekning urushta bir uluq hunari ushbu to‘lg‘amadur, hech urushi to‘lg‘amasiz bo‘lmas. Ya’na bir budurkim, ilgari va keyin bek va navkar tamom o‘q qo‘yub jilovluq keladurlar, yong‘onda ham parishon yonmay jilovluq yonadurlar”.

Shunday qilib “To’lg’ama” ning o’ziga xos taktik usuli dushman qanoti bo’ylab aylanib o’tib, uning ortiga hujum qilish va uning saflariga o’q-yoy bilan yopirilib o’qqa tutish ko’zda tutiladi. Bu taktik usulning atamasi “Tulg’amoq” ham turkiy fe’ldan kelib chiqqan bo’lib “qurshab olmoq, o’rab olmoq, aylanmoq, aylantirmoq” degan so’z ma’noni anglatadi.

Qanotni o’rab olish, dushman qo’shini boshliqlarini bo’linmalarni hujum bo’lgan tomonga o’girishga majbur qilgan (1-A rasm) va jangovar safni buzilishiga olib kelgan. Ko’chmanchilar Temuriylar qo’shinining qarshisidan, qanotlaridan va ortidan o’q-yoy bilan o’qqa tutishni davom ettirishgan (1-B rasm). Kerakli holatlarda ko’chmanchilar qaytadan raqib qo’shinining qanotlaridan aylanib o’tib, uning saflarida tartibsizlikni kuchaytirishgan. Qarshilik ko’rsatayotgan Bobur qo’shning zirhli otliq bo’linmalarining qarshi hujumlari kerakli natijani bermadi. Shayboniyxonning yengil otliq bo’linmalari Boburning og’ir otliq bo’linmalari hujumiga yengillik bilan chap berib, yana jang maydoniga qaytib kelishar edi. (1-V rasm). Mustahkam intizomga ega bo’lgan Bobur qo’shini tinimsiz o’q-yoy hujumidan va rejalashtirilgan burilish va qayta saflashlar natijasida bo’linmalar, o’z o’rinlarini tiklab olishar edi. (1-G rasm).

To’lg’ama taktik usulida asosiy o’rin yopirilma o’q-yoy hujumiga qaratilgan. To’lg’ama usuli qo’shinning qanot qismlari bilan (asosan chap qanot bilan) yoki butun boshli qo’shin bilan ham o’tkazilishi mumkin.

To’lg’ama usulini kelib chiqishi bo’yicha aniq asoslangan dalil-isbotlar mavjud emas, lekin O’rta asr davrlarida O’rta Osiyo va Sharqiy Yevropa ko’chmanchilariga juda yaxshi ma’lum bo’lgan va ular tomonidan samarali qo’llanilgan.



1-rasm. 1501 yildagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lib o'tgan jang misolida "To'lg'ama" taktik usulini qo'llanishi.

A – Shayboniyxonning ko'chmanchi qo'shini Bobur qo'shinini chap qanotini aylanib o'tmoqda va ularning saflarini tezlikda yangidan saflashga majburlamoqda. Kuchli avangard esa qo'shinni o'ng tomonida qolib jangda ishtirok etmayapti. "G'animning burong'ori juvong'orimizni bosib orqag'a evruldi, irovul ham qo'l sari qolib, olimiz yalang bo'ldi".

B – Bobur qo'shinining qarshi hujum uyushtirishga urinishi. "Olimizdag'ilarni necha navbat zo'rlab kelganda urub yondurduk. Ilgarimiz ham zo'rladi".

V - Shayboniyxon qo'shini yana bir bor Bobur qo'shinining chap qanotini aylanib o'tishga urinishi. Qarshidan va ortdan o'q-yoy hujumi. Bobur qo'shinining qarshi hujumi o'ylangan natijaga olib kelmadi. "...keyin evrulgan kishi ham kelib bizni tug'qa o'q qo'ya kirishtilar. Ilgaridin, keyindin zo'rladilar. Bizning elni tebrattilar".

G – Bobur qarorgohi ortiga ko'chmanchilarning o'q-yoy hujumi. Temuriylar qo'shinining qarshisidan va ortidan hujum. Temuriylar qo'shinining jang maydonini tashlab qochishi.


"...keyin evrulgan kishi ham kelib bizni tug'qa o'q qo'ya kirishtilar. Ilgaridin, keyindin zo'rladilar. Bizning elni tebrattilar. O'zbekning urushta bir uluq hunari ushbu to'lg'amadir, hech urushi to'lg'amasiz bo'lmas".

Masalan, bu usulni To'xtamishxon tomonidan 1391 yilda Qunduzcha va 1395 yilda Terek daryosi bo'yidagi janglarda Amir Temur qo'shiniga qarshi qo'llagan [3]. Bu ikki jangda ham Amir Temur qo'shini To'xtamishxonning "To'lg'amasi" natijasida mag'lubiyat arafasida bo'lgan va faqat Amir Temurning harbiy san'ati, qo'shinining intizomi va mukammal harbiy tuzilishi oxir-oqibatda g'alaba qozonishga olib keldi.

Bu usuldan Amir Temur ko'plab janglarda juda ustalik bilan foydalangan va qo'shinni jang oldidan dushmanni qanotlaridan o'rab olish bilan mag'lubiyatga uchratishni rejalashtirib, jangovar tartibga tizgan. Amir Temur harbiy san'at tarixida birinchi bo'lib, qo'shinni yetti qo'lga (qismga) bo'lib, qo'shin qanotlarini jang vaqtida dushman hujumidan himoya qilish va dushman kuchlarini yon tomonidan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – qunbulni joriy etdi [4].

Ko'p yillik urushlar natijasida orttirilgan boy tajriba va egallangan mahorat tufayli Zahriddin Muhammad Bobur 1526 yilda shimoliy Hindiston o'lkasini hukumdori Ibrohim Lodiy bilan Panipat ostonasida bo'lgan jangda kam sonli qo'shini bilan g'alaba qozondi. Bu jangda Bobur 12 minglik qo'shinga, Ibrohim Lodiy esa 100 ming kishilik qo'shinga ega edi[6]. Tarixiy manbalarga ko'ra Panipat ostonasidagi jang taqdirini Bobur tomonidan artilleriya va to'siqlarni muvaffaqiyatli qo'llanishi hamda "To'lg'ama" taktik usuli bilan hindlar armiyasini ortiga bergan qaqshatqich zarbasi hal qilgan (2-rasm).

LODIY



2-rasm. 1526 yil 21 aprel Panipat ostonasidagi jang

Xulosa qilib aytganda, “To’lg’ama” taktik usuli o’zbek xalqining tarixiy merosidir, bu O’rta asr davrlarida Osiyo renessansi faqat ilm bilan chegaralanmasdan harbiy san’at sohasida ham eng yuqori rivojlanish pog’onasida bo’lganidan darak beradi. Yevropa davlatlarida oldinga surilgan harbiy san’at tamoyillari esa, Sharq mamlakatlarida, qolaversa Bobur armiyalarida oldindan mavjud bo’lgan jang san’ati usullarini o’zgacha ishlov berilgan ta’limotlari deb hisoblasak to’g’ri bo’lar edi. “To’lg’ama” taktik usulidan tashqari Amur Temur, Bobur, Shayboniyxon qo’shinlari tomonidan birinchilardan bo’lib qo’llangan “Chig’iriy” (xorovod), rejali chekinib raqibni pistirmaga olib kelish va boshqa taktik usullar sinchkovlik bilan o’rganishni talab qiladi.

O’R QK harbiy xizmatchilari harbiy ilmni egallashda nafaqat Yevropa qarashlaridan va ularni tajribasidan kelib chiqqan, taktik usullarni o’rganish bilan chegaralanib qolmasdan tarixdan bizga ma’lum bo’lgan jang usullarini va ularni elementlarini o’rganish hamda zamonaviy janglarda taktik usullarni mohiyatidan kelib chiqqan hola zamnaviy ko’rinishida tadbiq qila olishi kerak bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобров, Л.А. Казахская тактика ведения боя в конном строю в конце XV–XVI веках / Л.А. Бобров // Война и оружие: Новые исследования и материалы. Труды Третьей международной научно-практической конференции 15-17 мая 2013 г. – СПб., – 2013. Ч. I. – С. 231-258.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: “Yulduzcha”, 1990. – 368 b.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: “O’zbekiston”, 1996. – 528 b.
4. Dadaboyev, H. Amir Temurning harbiy mahorati / H. Dadaboev. – T.: “Yozuvchi”, 1996. – 96 b.
5. Усманов, Ф.Х. История воин и военного искусства. Книга 1. Древний мир, средние века и новое время: учебник / Ф.Х. Усманов, М.М. Курганбеков, Ч.Д. Угай. – T.: “Талқин”, 2006. – 486 б.